

Ustozga ehtirom – millatga ehtirom

Mashg‘ulot maqsadi

O‘quvchilarga ustoz-shogird an‘anasining xalqimiz ma‘naviy merosidagi o‘rnini tushuntirish, ularda ustozga, kattalarga va o‘z millatiga nisbatan ehtirom, minnatdorchilik va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar o‘z bilimi, xulq-atvori va kelajakdagi kasbiy yo‘lini ustozlarga hurmat hamda millatga foydali bo‘lish g‘oyasi bilan bog‘lashga undaladi.

Kutilayotgan natijalar

Oy yakunida o‘quvchilar:

- ✓ ustozga hurmat bilan millatga hurmat o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlay oladilar;
- ✓ rolli intervyu, vaziyatli tahlil, hamkorlikdagi tadqiqot va ijodiy yozma ish orqali o‘z fikrini erkin bayon eta oladilar;
- ✓ tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar;
- ✓ ustozga, ota-onaga va millatga nisbatan hurmat, minnatdorchilik hamda mas‘uliyat qadriyatlarini mustahkamlaydilar.

1-HAFTA — “USTOZGA HURMAT – MILLATGA HURMAT” KIRISH MASHG‘ULOTI

I. Texnologik xarita

Ko‘rsatkich	Mazmuni
Davomiyligi	45 daqiqa
Mashg‘ulot turi	Interaktiv tarbiyaviy dars (video kontent namoyishi bilan)
Metodlar	Video kontent namoyishi (2 marta) “Assotsiativ zanjir” o‘yini, “Issiq stul” (rolli intervyu), “Charxpalak” fikr almashish
Jihozlar	Proyektor/monitor va ovoz jihozi, video materiallar, bitta stul, kichik quti (“minnatdorchilik pochta”), qog‘ozchalar, doskaga bo‘r/marker, kichik buyum (charxpalak uchun)

II. Mashg'ulotning borishi

Tashkiliy qism – 2 daqiqa

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi, bugungi kayfiyatlarini so'raydi.

O'qituvchi: *Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar!*

Hozir qisqa videorolikni tomosha qilamiz. Tomosha qilar ekansiz, bitta narsaga alohida e'tibor bering: qahramon qiz ba'zan javob bermaydi, jim qoladi. O'sha jim qolgan lahzalarni yodda saqlang

Videokontent namoyishi: O'qituvchi va murabbiylar kuni uchun ijtimoiy rolik.

O'qituvchi: *Videoda Nilufar to'rt marta javob bermadi — u jim qoldi. Endi o'sha sukutga biz ovoz beramiz. Men direktorning gapini takrorlayman, siz esa Nilufarning o'rnida turib, uning ichida kechayotgan fikrni bitta gap bilan aytasiz. Faqat bitta gap — ko'p emas. To'g'ri yoki noto'g'ri javob yo'q.*

✚ O'qituvchi direktorning to'rtta gapini navbat bilan sekin o'qiydi: “Ular sizni eshitmaydi” — “Ular sizni aldaydi” — “Ular sizdan xafa bo'ladi” — “Natijasini ko'rmaysiz”.

✚ Har bir gapdan so'ng 2–3 o'quvchi Nilufarning ichki ovozini birinchi shaxsda aytadi: “Men...”, “Menga...”, “Ammo men...”.

✚ O'qituvchi javoblarni baholamaydi, faqat eng yorqin ifodalarni doskaning chetiga yozib boradi.

O'qituvchi: *Endi diqqat qiling. Sizning gaplaringiz turlicha edi — kimdir qo'rquvni, kimdir sabrni, kimdir mehrni aytdi. Ammo Nilufarning o'zi bu sukutlarning hammasini bitta so'z bilan yakunladi. U nima dedi? — “Roziman”. Ustozlik kasbi — mana shu bitta so'zning ortidagi butun bir umr.*

2. “Assotsiativ zanjir” o'yini – 4 daqiqa

O'qituvchi: *Nilufar “roziman” dedi va sinf eshigidan kirdi. Ammo u o'sha eshikdan yolg'iz emas, butun bir kelajak bilan kirdi. Keling, o'sha kelajak qanday so'zlardan iboratligini birgalikda quramiz. Men “ustoz” so'zini aytaman. Har biringiz oldingi so'zga bog'liq yangi so'z aytib, zanjirni davom ettirasiz.*

Masalan: ustoz → bilim → kitob → kelajak → Vatan → millat... O'quvchilar navbat bilan zanjirni davom ettiradilar. O'qituvchi so'zlarni doskaga ketma-ket yozib boradi.

4-diagramma. “Assotsiativ zanjir”: bitta so'zdan butun qadriyat tizimigacha



Oʻqituvchi: *Qarang, biz “ustoz” soʻzidan boshladik va “millat” soʻziga yetib keldik. Bu tasodif emas: bitta ustoz bitta shogirdga bilim beradi, oʻsha shogird esa butun millatga foyda keltiradi. Demak, ustozga hurmat — millatga hurmatning birinchi pogʻonasi.*

3. “Issiq stul” — rolli intervyu – 8 daqiqa

Oʻqituvchi: *Biz hozirgacha ustoz haqida gapirdik. Endi ustozning oʻziga soʻz beramiz. Sinf oʻrtasidagi stulga oʻtirgan sinfdoshimiz bugun — hurmatli ustoz. Uning oʻrniga qoʻyib koʻring.*

Sinf oʻrtasiga bitta stul qoʻyiladi. Ixtiyoriy bir oʻquvchi “hurmatli ustoz” obrazini oʻynaydi. Sinfdoshlari unga navbat bilan quyidagi savollarni beradi:

- ❖ Nega oʻqituvchilik kasbini tanladingiz?
- ❖ Eng yodda qolgan oʻquvchingiz haqida gapirib bering.
- ❖ Sizningcha, shogird ustoziga qanday hurmat koʻrsatishi kerak?

“Ustoz” rolini oʻynovchi oʻquvchi xayoliy javob beradi (kerak boʻlsa, oʻqituvchi yordam beradi).

Oʻqituvchi: *Rahmat. Sinfdoshimiz bir necha daqiqaga ustozning oʻrniga qoʻyildi va koʻrdikki, bu oʻrin oson emas ekan. Endi xayoliy suhbatdan haqiqiy hayotga oʻtamiz.*

5. “Minnatdorchilik pochtsasi” – 5 daqiqa



O‘qituvchi: Aziz bolajonlar endi biz minnatdorchilik pochtsasiga ustozlarimizga qisqa minnatdorchilik xati yozib qoldiramiz.

Sinfda kichik quti qo‘yiladi. Har bir o‘quvchi kichik qog‘ozchaga o‘z ustoziga yoki millatiga bitta minnatdorchilik jumlasini

yozib, qutiga tashlaydi. Quti oy oxirigacha sinfda saqlanadi.

Mashg‘ulotni yakunlash — “Charxpalak” – 3 daqiqa

O‘qituvchi qo‘lidagi kichik buyumni (masalan, qalamni) bitta o‘quvchiga uzatadi. U bugungi darsdan olgan bitta fikrini aytib, buyumni keyingisiga uzatadi — shu tariqa navbat bilan hamma ishtirok etadi.

O‘qituvchi: Bugun biz mavzuga doir video kontentlarni ko‘rdik. “Ustoz” so‘zidan “millat” so‘zigacha zanjir qurdik va mavzuni debat asosida muhokama qildik. Uchalasi ham bitta haqiqatga olib keldi: ustozga bo‘lgan hurmat kichik ishlardan — bitta so‘zdan, bitta uzrdan, bitta rahmatdan boshlanadi.

Uyga vazifa

Ota-onalar (yoki uydagi kattalar) bilan suhbat o‘tkazing va javoblarni “Oilaviy suhbat daftari”ga yozing:

- ✚ Sizning eng unutilmas o‘qituvchingiz kim bo‘lgan va nima uchun?
- ✚ U sizga hayotda qanday saboq bergan?
- ✚ Sizningcha, bugungi kunda ustozga hurmat qanday namoyon bo‘lishi kerak?

Metodik izoh: ushbu javoblar 2-haftadagi darsda ishlatiladi, shu bois daftarni saqlab, o‘sha darsga olib kelish tayinlanadi.